

MAQSUDA ERGASHEVA SHE'RIYATIDA RAMZIY OBRAZLAR.

Z.Tojimatova

FDU o'qituvchi

M.Mutalibova

FDU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek xalq shoirasi Maqsuda Ergashevaning she'rlaridagi ramziy obrazlarni tutgan o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *qofiya, ramziy obrazlar, band, kechinma*

Annotation: *This article talks about the role of symbolic images in the poems of the Uzbek folk poet Maqsuda Ergasheva.*

Keywords: *rhyme, symbolic images, poetic clauses, impression, inner experience,*

Ma'lumki, adabiyotda ramziy obraz degan tushuncha bor. U grekcha "symbolon" so'zidan olingan bo'lib, qadimgi greklarda maxfiy tashkilot a'zolarining bir-birini tanib olishi uchun qo'llanilgan shartli belgini anglatadi. Badiiy adabiyotda ramz aniq tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisa yoki tushunchalarni odamning ko'z oldiga yaqqol keltiradigan narsalar orqali ifodalashni bildiradi. Bu esa ma'lum bir jonli va jonsiz narsalar ma'no anglatishi demakdir. Bundan tashqari insonlar va ularning xarakteri, ulardagi kechinmalarni ham jonli va jonsiz predmetlar orqali ifodalash mumkin.

Bunga misol tariqasida bizga ma'lum va mashhur bo'lgan shoiramiz Maqsud Ergasheva ijodida ham ko'rish mumkin. Uning "Qor ostida qolgan qizil gul" va "Yoshlik" she'rlarida ramziy obrazlardan unumli foydalangan.

"Qor ostida qolgan qizil gul" she'rida qizil gul bosh obraz bo'lib u chinakam ma'noda ramziy obraz hisoblanadi. Bu "qizil gul" mushfiq bir ayol to'laqonli ravishda olsak endigina yor bilan baxtli kunlarini boshlagan kelinchak misolida ko'rishimiz mumkin. Go'yoki urush atalmish sovuq shamol kelgan-u unga ziyon yetkazgan ya'ni uning yorini olib ketgan.

Darhaqiqat, urush davrida ayollarning, onalarning, yosh qiz-u kelinchaklarning his-tuyg'ulari, kechinmalari, ruhiy holatlari, muhabbatlari umuman e'tiborga olinmagan. Ya'nikim onalarning farzandlari, qiz-u kelinchaklarning yorlarini urush o'z komiga har qanday qarshiliklarga qaramay tortib ketgan.

Maqsuda Ergasheva shunday yozadi:

Qor ostida qolgan qizil gul,

Sovuq urdi yuz-u ko'zini.

Avvalo bu yerda "qor"ni-g'am, "qizil gul"-ayol, kelinchak, "sovuq" so'zni esa urush ma'nosida ramziy obrazlarga olsak, ya'ni shunday ma'noni anglash mumkin: qor ostida qolgan ya'ni g'am qayg'u ostida qolgan qizil gulni sovuq(urush) yuz-u ko'zini uradi, unga o'z jabr-u sitamlarini yetkazadi.

Endi bahor kelguncha to,
Tilga olmas sevgi so'zini.

Bu misralarda yorni "bahor" deya ataydi va u yoriga juda vafodor ekanligini ham unutmaslik kerak negaki, unga o'zgalarning emas, faqat yorning sevgisi kerak shuning uchun ham u endi sevgi so'zini tilga olmaydi, bahorni-yorni kelishini kutadi.

U nimaga bo'lgandi maftun,
Ochilgandi nechun qish chog'i
Ignalari butun bo'lsa ham,
To'kilgandi barcha yaprog'i.

Ushbu misralar orqali shoira yosh kelinchakning ichki kechinmalarini tasvirlashga erishadi.

U yorning sevgisiga, uning muhabbatiga maftun bo'lgandi, shuning uchun atayin qish chog'i bo'lsa ham baxtli bo'lish uchun ochilgan edi. Lekin "Ignalari butun bo'lsa ham" ya'ni u yorini qaytishiga, uning tirikligiga ishonchi mustahkam bo'lsa ham sekin astalik bilan gul yaprog'i to'kilgan kabi uning umidlari so'nib bormoqda. Bunga ehtimol suyukli yorning urushga ketganiga ancha vaqt bo'lgani, undan hamon darak bo'lmagani, urushdan kelayotgan turli xil yomon gaplar va boshqa xonadonlarga kelayotgan eng sovuq xat ya'ni "qoraxat" sabab bo'lgandir.

Shoira urush davridagi odamlarni qiyin holatini biroz bo'lsa ham tasvirlashga urinadi:

U bekorga ochilmagandi,
Izlamagan edi u rohat
Ne ilojki, qonli ko'ksida
Yozdan qolgan edi harorat.

U bekorga ochilmagan edi, u o'z yori bilan baxtli bo'lmoqchi edi, atayin rohat izlagan edi. "Ne ilojki" odamlarni boshqa chorasi yo'q, ular shunga majbur, ya'ni yorni urushga ketishiga, usiz yashashga ko'nikishga majbur.. Afsuski, bundan ayolning ko'ksi qon bo'ladi, uning yorsiz va undan xavotir olib o'tgan azobli kunlari uning ko'ksini qon qiladi.

She'rning birinchi bandi bevosita ikkinchi bandini o'z fikrlari ila to'ldirib ketadi. Ya'ni endi "bahor" suyukli yor kelgunicha u sevgi so'zini tilga olmaydi, uning qalbida "yozdan" yordan harorat, muhabbat qolgan edi. Chunki, u uchinchi bandda aytilganidek bekorga ochilmagan edi, u atayin qish chog'i bo'lsa ham baxtli bo'lish uchun ochilgan edi. Afsuski, urush sabab uning barcha orzulari misoli yaproq kabi to'kildi.

Aslida shoira yosh kelinchak obraziga qizil gulni ramziy ifoda qilib olishi bejiz emas. Ayollarimizning yangi kelinchaklik davri bu eng gullagan o'z husn-u chiroyiga yana ham chiroy qo'shilgan, kishi qarab to'ymaydigan davri bo'ladi. Qizil gul ham shunday, negaki, ko'pincha qizil gul-chiroylilik, yoqimlilik; gul esa go'zallik ramzi. Haqiqatdan ham qizil gular xushbo'y va chiroyli bo'ladi. Lekin shunday chiroyli gulni endi ochilgan payti urush sabab erta hazon bo'lishi afsuski, juda ham achinarli

holat.Barchamizga ma'lumki,urush davrlari ayollarimiz ham jismonan og'ir mehnatlarga jalb qilingan,qolaversa urushdagi yaqin kishisini deb ruhiy azob ham chekkanlar.

She'ning eng kulminatsion,yuqori nuqtasi uning boshi ya'ni birinchi bandi desak mubolag'a bo'lmaydi.Negaki,birinchi banddayoq she'ning nima haqida ekanligi,aniq mavzusi va voqeasi ochib berilgan:

Endi bahor kelguncha u

Tilga olmas sevgi so'zini.

"Yoshlik" she'rini tahlil qilishimizdan avval bir narsaga e'tibor qaratmoqchimiz,avvalo yoshlik so'zi deganda ota-ona,og'a-inilar bilan o'tgan zavqli paytlar esimizga keladi.Bundan tashqari yoshlik insonning eng qayg'usiz,tashvishlarsiz o'tgan maroqli davridir.

Eh, u fasl umring nastarin

Gullar bilan kechirmog'ingdir.

Duch kelganda tog'lardek

Bir barg kabi uchirmog'ingdir.

Shoira o'z she'rida yoshlikni "fasl" deya ramziy obrazga oladi.Ya'ni yoshlik isnon umrining eng chiroyli davridir.U faslni eng chiroyli,xushbo'y gullar-nastarinlar bilan o'tkazish juda zavqlidir.Ushbu misralar orqali shoira o'z-o'ziga yoshligingda sen zavqli davrlaringni tog'lar qadar mustahkam ya'ni ko'p,hech qachon tark etmaydi deb o'ylaysan,lekin vaqt uni bir bargdek uchirib yubordiku deganday bo'ladi.Asilda esa vaqt emas insonning o'zi ulg'aygani uchun yoshlik kuzda xazonrezgilikka uchragan bir bargek uchib ketadi.

Nechuk endi sog'inib yig'lash

Ul devona,galdir faslni.

Aylanadi mudom to'rt fasl

Ko'ngil degan mangu qasrni.

Ushbu misralarda hammasi o'tib bo'ldiku,nega endi uni sog'inyapsan,axir vaqtida u devona faslni qadriga yetmadingku degandek.She'rda nima uchun so'roq olmoshini nechuk tarzida qo'llanishi bu misraning ohangdorligini ta'minlashga xizmat qilgan va she'ning badiiy jihatdan maqomini oshirgan ya'ni nechuk deya lirik qahromonga murojaat etish orqali uning avvalgi qilgan xatosini eslatmoqchidek bo'lgan.Yoshlik faslni devona,galdir deyishining ham o'z ma'nosi bor.Yoshlikda har bir inson kechani yoki ertani emas faqat bugunni o'ylab yashashi hamda ushbu kunlarni o'y-tashvishlarsiz o'tkazishi tabiiy hol.Shu yerda "galdir" so'ziga to'xtalib o'tsak,u 1)boshiga ishq savdosi tushgan odam;telba,devona.2)Xalq kuylaridan birining nomi.Yoshlik so'zini yanada kengroq yoritadigan bo'lsak,albatta yoshlikda muhabbat degan tuyg'ular bo'ladi.Shuning uchun ham shoira yoshlikni devona,galdir fasl deya ta'riflayapti.Muhabbat asilda ko'ngilda bo'ladi,Maqsuda Ergasheva esa ko'ngilni qasr demoqda.Endi bir jihatga e'tiborimizni qarataylik:ko'ngil hech qachon insonni tark etmaydi,u yoshlik qarilik paytlariga e'tibor bermaydi,u mangudir hamda insonning eng

noyob ichki kechinmalari ham ko'ngilda bo'ladi shuning uchun ham u oddiy uy emas, balki, qasrdir. To'rtala faslni insonning umr davrlariga qiyoslash mumkin. Masalan: go'daklik davri, o'smirlik-yoshlik davri, o'rta yosh davri va qarilik davri. She'rning oxirgi misralarida bu to'rtala fasl ko'ngilni mudom ya'ni doimo aylanadi. Inson umrining davomidagi barcha xotiralar uning ko'nglida fasllar kabi aylanadi.

Haqiqatdanki, yoshlik o'tkinchi fasl lekin shu bilan birga inson umrining eng go'zal davridir.

Ikkala she'rda ham qo'llangan ramziy ma'nodagi so'zlar she'riyat ixlosmandlarini ta'sirlantira oladi, ularda she'rga nisbatan badiiy effektni uyg'ota oladi. Effekt- "kuchli taassurot". Demak ikki she'rdan ham kuchli taassurot olish mumkin.

O'z fikrlarimizni xulosalar ekanmiz ramziy obraz ifodalamoqchi bo'lgan fikrni kengroq hamda ta'sirliroq chiqishiga katta yordam berar ekan. Sevimli shoiramiz Maqsuda Ergasheva ushbu ta'sirli, ma'nolarga boy, go'zal she'rlari orqali ramziy obrazlardan foydalanib, haqiqiy o'zbek ayolining ruhiy holatini ta'riflagan hamda yoshlik davrlarini juda chiroyli tarzda tasvirlab bergan. O'quvchini davr muhitiga olib kira olgan.

ADABIYOTLAR:

1. Tojimatova, Z. (2020, December). BIOGRAPHICAL FEATURES IN LYRIC IMAGE. In Конференции.

2. Akbarov A. T., Tojimatova Z. A. The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of Mahmudkhuja Behbudi // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 19-24.

3. Tojimatova, Z. (2020, December). BIOGRAPHICAL FEATURES IN LYRIC IMAGE. In Конференции.

4. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari.

5. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish.

6. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi.